

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

S.M.Zokirova	
Hozirgi zamон ijtimoiy fanlar kontekstida disleksiya.....	1315
I.T.Xojaliyev	
Tasvir nutq tipining modal aspekti.....	1319
M.A.Usmanova	
"Ansob us-salotin va tavorix ul-havoqin" asarida izofiy birikmalarning qo'llanilishiga doir nazariy masalalar.....	1324
R.N.Umarova, O.U.Xolmatova	
Kognitiv lingvistikada konsept va maqol tushunchasi munosabati	1328
O.F.Turdaliyev	
"Guliston" asarining o'rganilishi va uning tarjimalari	1333
R.M.Shukurov, S.S.Abdikunduzova	
Kommissiv nutqiy aktlar tadqiqi va tasnifi.....	1337
A.I.Saminov	
Oksymoron va unga yondosh stilistik figuralar xususida	1341
G.Z.Rozikova	
Gaplarga xos sintagmatik nomutanosiblikni yuzaga keltiruvchi omillar	1346
N.A.Quldashev, F.N.Mahmudova	
Allegory as a research object of linguistics	1351
E.K.O'rinooyeva, G.S.Jo'raboysheva	
"Devonu lug'otit turk"da qo'llanilgan ayrim maqollarning lingvopoetik tahlili	1354
U.I.Nosirova	
Poetik matnlarning vizual-grafik ifodasi	1360
Sh.R.Mo'ydinov	
Ingliz va O'zbek tillarida "Hayot/O'lim" konseptual oppozitsiyasi verbalizatorlari struktural-semantik maydoni	1366
Y.I.Karimov	
O'zbek tilshunosligida til birliklari va so'z birikmalari talqini	1369
G.S.Jo'raboysheva, G.V.Ergashova	
"Qisasi rabg'uziy" asarida qo'llangan ko'makchilar tahlili	1373
D.M.Ismoilova	
Lingvogenderologiyaning nazariy masalalari	1378
G.S.Jo'raboysheva, E.K.O'rinooyeva	
"Devonu lug'otit turk" asari va toponimlar	1383
Sh.M.Iskandarova, N.R.Maxmudova	
Tub so'z holatidagi ornitonimlar	1388
E.I.Ibragimova, E.K.O'rinooyeva	
Sintaktik sathda qarama-qarshilik munosabatining ifodalananishi	1392
Sh.M.Iskandarova	
Lug'aviy birliklarda differensial-mazmuniy munosabatlar	1397
X.X.Dusmatov, Z.N.Maxmudova	
So'z o'yinlarining askiyachilar nutqida qo'llanilishi	1401
Z.A.Akbarova	
Inson dunyoqarashi olamni modellashtiruvchi sifatida	1406
P.M.Axmadjonov	
Sayf Farg'oniy she'riyatida istiora badiiy so'z san'atining qo'llanilishi	1409
O.Q.Abbozov	
Diniy motivli toponimlar	1413
I.T.Axmadjonov	
Deminutiv morfemalarning semantikasi va uslubiyati	1416
M.T.Abdupattoyev	
Poetik nutqda aktualizatsiya va aktual bo'linish	1422
A.Mamajonov, O.Q.Abbozov	
So'x tumani toponimlarining lingvistik tadqiqi	1427
M.T.Abdupattoyev	
Matning statistik tahlili	1433



УО'К: 82-1:82.0:82(2-191)

**SAYF FARG'ONIY SHE'RIYATIDA ISTIORA BADIY SO'Z SAN'ATINING
QO'LLANILISHI**

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОБРАЗНОГО ИСКУССТВА СЛОВА В ПОЭЗИИ САИФА
ФЕРГАНИ**

**THE USE OF FIGURATIVE ART OF WORDS IN THE POETRY OF
SAIF FERGHANI**

Axmadjonov Parvizjon Maxamadzoda

Farg'ona davlat universiteti, tilshunoslik kafedrasи o'qituvchisi

Annotatsiya

Shoirlik mahoratining uzlusiz jihatlaridan biri badiiy san'atlardan foydalanish hisoblanadi. Sayf Farg'onlyi ham boshqa shoirlar singari obraz yaratuvchi unsurlardan foydalanishda mohirdir. U bor bilimi va ishtyoqi bilan badiiy san'atlardan mohidlik va zukkolik bilan foydalangan, fikr takrorlashdan hamisha o'zini uzoq tutgan. Uning bu harakatlari, eng avvalo, yangidan yangi ma'nolarni yaratishga qaratilgan. Binobarin, shoir o'z fikrlarining rangbarang bo'lishi uchun ma'lum uslublardan foydalanadi. Sayf Farg'onlyi boshqa shoirlar qatori ijodkorlikning muhim unsurlaridan biri bo'lgan badiiy san'atlarni ko'p qo'llagan va shu orqali she'riyatining jozibadorligi, mazmunliligi, ta'sirchanligi va go'zalligini ta'minlagan. Shu ma'noda Sayf Farg'onlyi she'riyatida badiiy san'atning ko'plab turlari qo'llangan bo'lib, jumladan, tashbeh, istiora, talmeh, mubolag'a, tazod, tashxis kabi san'at turlarini sanab o'tish mumkin. Sayf tilga olingen har bir san'atdan foydalanishda o'zining shoirlik mahoratiga xos bo'lgan, fors-tojik adabiyotining boshqa shoirlarda kam ko'zga tashlanadigan yo'llarni mo'ljallagan.

Аннотация

Одним из непрерывных аспектов поэзии является использование художественных искусств. Саиф Фаргани, как и другие поэты, умеет использовать элементы, создающие образ. При всех своих знаниях и энтузиазме он умело и разумно пользовался художественным искусством и всегда воздерживался от повторения идей. Его действия направлены, прежде всего, на создание новых смыслов. Поэтому поэт использует определенные стили, чтобы сделать свои мысли красочными. Саиф Фаргани, наряду с другими поэтами, часто использовал художественные искусства, являющиеся одним из важных элементов творчества, и тем самым обеспечивал привлекательность, содержательность, впечатляемость и красоту своей поэзии. В этом смысле в поэзии Саифа Фаргани используются многие виды искусства, в том числе аллюзия, аллегория, тальме, преувеличение, тазад и возможная диагностика. В использовании каждого из упомянутых искусств Саиф стремился к способам, характерным для его поэтического мастерства и редко встречающимся у других поэтов персидско-таджикской литературы.

Abstrakt

One of the continuous aspects of poetry is the use of artistic arts. Saif Farghani, like other poets, is adept at using image-creating elements. With all his knowledge and enthusiasm, he used the artistic arts skillfully and intelligently, and always refrained from repeating ideas. His actions are primarily aimed at creating new meanings. Therefore, the poet uses certain styles to make his thoughts colorful. Saif Farghani, along with other poets, often used artistic arts, which are one of the important elements of creativity, and thereby ensured the attractiveness, meaningfulness, impressiveness and beauty of his poetry. In this sense, many types of art are used in Saif Fargani's poetry, including allusion, allegory, talmeh, exaggeration, tazad, and diagnosis. Possible In the use of each of the mentioned arts, Saif aimed for ways that are characteristic of his poetic skills and are rarely seen in other poets of Persian-Tajik literature.

Kalit so'zlar: Sayf Farg'onlyi, she'riyat, badiiy so'z san'atlari, istiora, ochiq istiora, murakkab istooralar, majoz, mazmun.

Ключевые слова: Саиф Фаргани, поэзия, художественное слово, метафора, открытая метафора, сложные метафоры, метафора, смысл.

Key words: Saif Farghani, poetry, artistic words, metaphor, open metaphor, complex metaphors, metaphor, meaning.

KIRISH

So'zlarni majoziy qo'llash usullaridan biri – istiora orqali yangi mazmunlar yaratishdir. "Istiora majozning bir turi bo'lib", [1, 36] "Madorij-ul-balogs'a" kitobida "Маънои луғавии истиора ба орият хостани чизе аст" [2, 12] (Istioraning lug'aviy ma'nosi biror narsani oriyatga olmoqdir) deyiladi. Oriyat so'zining ikki ma'nosi bo'lib, bu joyda uyat, sharm, nang ma'nosida emas, balki "чизеро барои истифода мувакқатан аз касе гирифтсан" [3, 34] (foydalinish uchun birovdan vaqtinchalik biror narsani olmoq) ma'nosida keladi. Shu ma'noda, istiora terminologik ma'noda shunday so'zki, turli, ammo o'xshash ma'noni ifodalash uchun bir-birining o'rnida ishlataladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Istiorada "...ikki hodisaning o'xshashligiga asoslanib, so'z majoziy ma'no kasb etadi. Ya'ni istiora tashbehga juda yaqin, to'g'rirog'i, u yopiq tashbehning keyingi rivojlanishi asosida yuzaga keladi" [4, 83]. Shunga ko'ra Arastu istiorani tashbehning bir turi deb atagan va Ibn Asir shunday degan: "Истиора интиқол додани маъноест аз лафзе ба лафзе дигар ба муносабати мушорикате, ки доранд" [5, 107]. (Istiora-bu ma'noni bir lafzdan boshqa lafzga ular ega bo'lgan aloqayu munosabatiga nisbatan ko'chirish).

Sayf Farg'oniy she'rlarida istioraning har ikki turi – ochiq va yopiq tarzda kuzatiladi. Farg'oniy she'rlaridagi ochiq istioralar oy, quyosh, sarv va shunga o'xshash bo'lib, ularning aksariyati takrorlanib turadi va ularda Farg'oniyning tashabbuskorligi unchalik sezilmaydi. Biroq bu o'rinda alohida e'tiborga loyiq jihat, mazkur istioralardan foydalanan usulida Sayf Farg'oniyning o'ziga xos uslubi va shirin so'zlashuvi birinchi o'rinda turadi. Ifoda uslubining ayni o'ziga xosligi shoirning ochiq istioralariga toza rang bag'ishlab, takrorlansada, o'quvchi nazdida yangicha jilva beradi. Jumladan, quyidagi baytda shoir **оя** (моҳ) so'zini istiora sifatida qo'llab, ma'shuqaga murojaat qilgan:

Бар осмони суратат, эй **моҳи** некӯвон,

Истора эмин аст ба рӯз аз зиҳоби ҳусн [6, 612].

(**Ma'nosi:** Surating osmoniga ey mahvash, yulduz osudadir husning zihobidan.)

Офтоб (Quyosh) va сарв (sarv) so'zları istiora sifatida qo'llanilgan baytlarida ham xuddi shunday so'z nafosatini ko'rish mumkin:

Ту зи кори дигарон ҳеч намепардозӣ,

То бигӯям, ки нигоҳе ба мани ғамгин кун!

Ҳама зарроти ҷаҳон аз ту мадад меҳоҳанд,

Офтобо, назаре сўйи мани мискин кун [6, 619].

(**Ma'nosi:** Sen boshqalarning ishini hech e'tiborga olmaysan, aytayin men g'mginga bir nazar tashla. Jahondagi barcha zarralar sendan madad so'raydilar, ey Quyosh men miskin tomonga bir nazar sol.)

Сарв дарояд ба ракс, наъра занад андалеб,

Фунча кунад чайб чок, гул бидарад пираҳан [6, 627].

(**Ma'nosi:** Sarv o'yingga tushsa, faryod urar bulbul, g'uncha jaybin chok qilar, gul libosini yirtadi.)

Sayf Farg'oniy go'zal ma'nolarni va his-tuyg'ularni ifodalashda ham ochiq istioradan o'z o'rnida mohirona foydalangan. Quyidagi misolda dilbarning yuzi gul, pista, bodom va qandga to'la tovoqqa, ya'ni ruxsor o'niga gul, og'iz o'niga pista, ko'z o'niga bodom va lab o'niga shakar istiora sifatida kelgan:

Дӯш дар маҷлиси мо буд зи рӯйи дилбар

Табаке пур зи гулу пиставу бодому шакар.

Зикри он пиставу бодом мукаррар накунам,

Шакараш қути равон буду гулаш ҳаззи назар [6, 488].

(**Ma'nosi:** Yaqinda bizning majlisimizda dilbarning yuzidan, bir tabaq to'la gul, pista, bodom va shakar. Lek bu yerda pista va bodom zikrini qilmayman, shakari quti ravon ediyu guli nazarni tig'i.)

NATIJA VA MUHOKAMA

Shoir she'rlaridagi istioralarni takroriyligi va o'ziga xosligiga ko'ra alohida ikki guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruhga takroriyligi jihatidan seziladigan istioralar kiradi va ehtimol Sayf Farg'oniy ularni o'zidan oldingi shoirlar ijodidan oriyatga olgan bo'lsa kerak. Jumladan, "даражти ақл" (aql daraxti), "гӯши дил" (yurakning qulog'i), "чашми дил" (yurakning ko'zi), "майдони ишқ"

TILSHUNOSLIK

(*ishq maydoni*), "санги маломат" (*malomat toshi*), "камони абрӯ" (*qosh yoyi*), "дасти карам" (*himmat qo'li*), "меваси ишқ" (*ishq mevasi*), "мурғи дил" (*yurak shavqi*), "дарёни ишқ" (*ishq daryosi*) [Сайфи Фарғонӣ. Девон. Бо таҳия ва тадвини Иброҳими Накқош. – Душанбе: "ЭР-граф", 2023. 268, 270, 278, 280, 281, 303, 308, 316, 317, 320] каби историалар шу гуруга кирди, чунки уларнинг намуналарини бoshqa shoirlar she'rlarida ham ko'rish mumkin. Biroq, "меру бода" (*shamolning ta'siri*), "кисвати раъной" (*zebogii botini*), "дафтари доной" (*donolik daftari*), "дили гунча" (*dili purumed*), "хаданги мижа" (*nazarning tig'i*), "хори меҳр" (*mehr tikani*), "қаеси абрӯ" (*qosh qavsi*) [Сайфи Фарғонӣ. Девон. Бо таҳия ва тадвини Иброҳими Накқош. – Душанбе: "ЭР-граф", 2023. 269, 288, 289, 295, 307, 313, 321] каби историаларда shoir ijodidagi o'ziga xos yangilik seziladi. Чунки уларнинг aksariyati shoir izlanishlari mahsuli bo'lib, uning yorqin adabiy faoliyatidan dalolat beradi.

Sayf Farg'oniy yangidan yangi историалардан foydalaniб, juda qiziqarli mazmun va go'зal she'riy tasvirlar yaratadi. Xususan, quyidagi baytda "оби адл", "дасти эҳсон", "чирки зулм", "собуни адл" so'zlarining majoziy ifodasi uning mazmuniga go'зal tasviriy jihat baxsh etadi. Shoир aytadiki, bu zamonlar zulmining kirlarini yer yuzidan adolat sovunining suvi va ehson qo'li yuvadi:

Оби адлу дасти эҳсон шўяд аз рӯйи замин

Чирки зулми ин авононро ба як собуни адл[6, 169].

(Ma'nosı: Obi adlu dasti ehson yuvar yer yuzidan, bu zamonlar chirkiz ulmini bir sobuni adl bilan.)

Sayf Farg'oniy she'rlarida shaklan murakkab историалар ham salmoqli o'ren tutadi. Bu turdag'i istiora miqdor jihatidan oddiy ikki so'zli istiora turiga nisbatan kamroq holatda bo'lsada, Farg'oniy she'rlari matnida murakkab историалarning mazmun yaratish va yangi shoirona ma'nolar topishdagi o'rni katta ahamiyatga ega. Murakkab историалар qatorida uch qismdan iborat bo'lib, qo'shimcha aloqa va bog'lanish orqali shakllangan "бозори кори ишқ", "доруи бемории ишқ", "майли булбули бисёрғу", "бӯйи шароби ишқ", "чанги гурги нафс", "тазалхони ишқи ёр", "дари боги вафо" [Сайфи Фарғонӣ. Девон. Бо таҳия ва тадвини Иброҳими Накқош. – Душанбе: "ЭР-граф", 2023. 316, 342, 455, 455, 486, 487, 125] историаларini ko'rish mumkin. Murakkab историалар orqali ham shoirning fikrleri rang-baranglashib, kuchli tasviriy jihat kasb etadi. Quyidagi baytdagi "дари боги вафо" историаси xuddi shu holatni ko'rsatadi:

Меваи васл хӯҳӣ аз сари шохи карамаш,

Бар дари боги вафо бех фурӯ бар чу шачар[6, 125].

(Ma'nosı: Parvardigorning karamidan vasl mevasini istasang, shajar (daraxt) kabi vafo bog'i eshigida ildiz ot.)

XULOSA

Yuqoridagi so'zlardan kelib chiqib, shuni ta'kidlash joizki, istiora san'atiga alohida e'tibor qaratilishi, majoz orqali mazmunni yetkazilishi va ularni yaratishning o'ziga xos usullari Sayf Farg'oniy she'rlaridagi tasviriy jihatning muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Р. Ҳодизода, М. Шукров, Т. Абдуҷабборов, Фарҳангни истилоҳоти адабиётшиносӣ. – Душанбе: "Ирфон", 1966. 36 Сах.
2. Ризоқулихон Ҳидоят, Мадорич-ул-балога (дар илми бадеъ) / Ризоқулихони Ҳидоят. – Шероз: Матбааи Муҳаммадӣ. – 1331 ҳ. – 12 сах.
3. Фарҳангни тафсирии забони тоҷикий. Иборат аз 2 чилд. Ҷилди 2. – Душанбе: "Пажӯшишгоҳи забон ва адабиёти ба номи Рӯдакӣ", 2008. Сах 33-34.
4. М. Занд. Шесть веков славы / М. Занд. – М.: Наука, 1964. 83 сах.
5. Муҳаммадризо Шафееви Кадканий. Сувари хаёл дар шеъри форсӣ. Таҳқиқи интиқодӣ дар татавvuри вожаҳои шеъри порсӣ ва сайри назарияи балоғат дар ислом ва Эрон. – Текрон: "Оғоҳ", 1366. 107 сах.
6. Сайфи Фарғонӣ. Девон. Бо таҳия ва тадвини Иброҳими Накқош. – Душанбе: "ЭР-граф", 2023. Сах 612.
7. Axmadjonov, P. (2023). SAYF FARG 'ONIYNING TARJIMAI HOLI VA HAYOT YO 'LIGA DOIR. Scientific journal of the Fergana State University, (5), 40-40.
8. Маматов, М., & Аҳмадҷонов, П. (2023). SAYFIDDIN MUHAMMAD FARG 'ONIY IJODIDA TASAVVUFİY TAMOYILLAR. Scientific journal of the Fergana State University, (5), 39-39.
9. Maxamadzoda, A. P. (2024). MYSTICISM IN THE CREATIONS OF SAIF FARGHANI. International Multidisciplinary Journal for Research & Development, 11(01).
10. Mahamadzoda, A. P. (2022, December). SAIF FARGHANI UND DIE SITUATION SEINES LEBENS. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 1, No. 9, pp. 33-35).

11. Maxamadzoda, A. P. (2022). Life and Works of Saifiddin Muhammad Fargani. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 3(11), 127-132.
12. Axmadjonov, P. M. (2021). "Sadriddin Ayni" Sample of Tajik literature" and some issues of zullisonayn in it. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 12(104), 406.
13. Mahamadzoda, A. P. (2021, April). Important features of fazli namangani tazkirasi and the issue of zullisanain. In *Archive of Conferences* (Vol. 23, No. 1, pp. 5-7).